Ogahiyshunoslik rivoji

Ruxsora Shukurova Abdulhofiz qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti xalqaro jurnalistika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

M. Ortiqova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti , PhD , ilmiy rahbar

Annotatsiya: Maqolada Ogahiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan olimlarimizning, ijodkorlarning gazeta, jurnal va nashriyotlarda chop etilgan ilmiy tadqiqotlari, badiiy maqolalari, kitoblari to‘g‘risida, shuningdek yoshlarimizning ogahiyshunoslikka qo‘shayotgan hissasi to‘g‘risida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiyshunoslik, manbashunoslik, ogahiyshunoslar kengashi, hikmatli so‘zlar.

Abstract: The article contains information about the scientific researches, artistic articles, and books of our scientists and artists dedicated to the life and work of Ogahi, published in newspapers, magazines, and publishing houses, as well as about the contribution of our youth to Ogahi studies.

Key words: Information studies, resource studies, Council of Information Scientists, words of wisdom.

Xalqimizning milliy madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli shoirlarimizdan biri Ogahiydir. Chunonchi, o‘zbek adabiyotida Navoiydan keyin Ogahiy ijodida hikmatli so‘zlarga ko‘p duch kelamiz. Qomusiy bilim, teran tafakkur, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba sohibi bo‘lgani, donishmand maqomiga etgani uchun ham shoirning ko‘plab baytu misralari hikmatday, xalq maqollariday jaranglaydi. Ogahiy qolaversa, zaminimizda tug‘ulib

o‘sgan mutafakkirlarimizning faoliyatini chuqurroq o‘rganish, ilmiy merosini davom ettirish va ularga munosib avlod bo‘lish barchamizning burchimiz hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, "Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy-axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan nodir qo‘lyozmalarini jiddiy o‘rganish davri keldi".[1] Shu sababli o‘z davrining ziyoli va ijodkor kishisi Ogahiyning hayot va ijod yo‘lini o‘rganayotgan, adib asarlari va qo‘lyozmalarini tadqiq etayotgan hamda ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan yozma yodkorliklarning tadqiqi yo‘nalishida faoliyat yuritgan va yuritayotgan olim va tadqiqotchilarning ogahiyshunoslikka qo‘shayotgan hissasi to‘g‘risida ma'lumot bermoqchimiz. Shu o‘rinda akademik G‘.G‘ulomning ushbu so‘zlarini eslab o‘tsak. “Mamlakatimizning boshqa xalqlari kabi, o‘zbek xalqi ham o‘zining asrlar davomida yaratilgan boy, o‘ziga xos madaniyatiga ega. Bu yerdan fan, adabiyot va san’atning qator ulug‘ arboblari yetishib chiqqanlar. Shuni aytib o‘tish kerakki, keyingi yillarda hech qanday asossiz Lutfiy, Otoyi, Sakkokiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Munis, Ogahiy, Feruzlarning ijodi o‘rganilmayotir, biz faqat Navoiy, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz kabi shoirlar ijodini o‘rganish bilan cheklanib qolganmiz” – degan edi. Shundan keyin “Ogahiyshunoslik” fani vujudga keldi.[2]

Serqirra ijod, noyob iqtidor sohibi Ogahiydan bizga juda boy ilmiy va adabiy meros qolgan. Mavlono Ogahiyning ko‘p asarlari ilmiy muomalaga tortilgan bo‘lsa-da, mamlakatimiz o‘z istiqloliga erishgandan so‘ng bu ulug‘ zotning bizga qoldirgan boy qo‘lyozma merosini chuqurroq o‘rganish yanada keng yo‘lga qo‘yildi. Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganib tahlil qilgan R. Majidov, S. Dolimov, A. Qayumov, Q. Munirova, F. G‘anixo‘jayev, A. Abdug‘afurov, I. Haqqulov, N. Karimov, H. Abdullayev, N. Jabborov, N. Toshev kabi o‘nlab taniqli olimlar, adabiyotshunoslar yaratgan risolalar, monografiyalar alohida diqqatga molikdir. Ogahiyning

[1] Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q" T.,Sharq,1998,Б-4

[2] http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/521

tarjimashunoslik borasidagi mahorati xususida ko‘p yozilgan va hali ko‘p yozilajak. Ayniqsa filologiya fanlari doktori, ogahiyshunos olim professor Najmiddin Komilov tadqiqotlari benihoya ulkan tahsinga loyiq. U kishi Ogahiy tarjimalarini asl nusxalar, boshqa tarjimalar bilan solishtirib, hazrat iqtidoriga, so‘z mulkiga bo‘lgan talabchanligiga qoyil qolib nihoyatda yuksak baho bergan. N. Komilovni Ogahiyning tarjimonlik faoliyatini chuqur o‘rgangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki Komilov nafaqat nomzodlik, balki doktorlik dissertatsiyasini ham hazrat Ogahiy ijodiga bag‘ishlagan ustoz hisoblanadi. Ogahiy tarjimalarini ilmiy o‘rganish bizga katta maktab vazifasini o‘tash bilan birga tarjimashunoslik sir-asrorlaridan voqif qiladi, badiiy va ilmiy salohiyatimizning yanada sayqallanishiga yordam beradi. Ogahiy asarlaridan biri bo‘lgan "Zubdat ut-tavorix" asari Ogahiyshunos olim Quvomiddin Munirov tomonidan ham o‘rganilgan. Uning tadqiqotlarida asar nusxalarining tavsifi berilib, qator ma'lumotlar qayta hikoya qilingan . Ta'kidlash joizki, O‘zbek olimlaridan ilk bora Munirov Ogahiyning tarixnavis olim sifatidagi ijodini o‘rgangan va keyinchalik ham bu mavzuni o‘rganishni davom ettirgan yirik olimdir. Shuningdek O‘zRFA sharqshunoslik institutining ilmiy xodimi Hilola Nazirova Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarini manbashunoslik jihatidan o‘rganayotgan bo‘lg‘usu olimadir. Ogahiy lirik asarlari leksikasi borasida R.Yo‘ldoshevning bir necha maqolasi e’lon qilingan. Shu bilan birga 1999-yilda “Ishq ahlining tumori” to‘plami nashr qilinishi ham ogahiyshunoslik rivojidagi voqealardan biridir.

Tilshunoslik sohasida ogahiyshunoslik o‘tgan asrning elliginchi yillaridan boshlangan. Ogahiy asarlari til xususiyatlariga bag‘ishlangan ilk maqola S.Dolimov tomonidan e’lon qilingan. Muhammad Rizo Ogahiy merosi tadqiqini nazarda tutuvchi ogahiyshunoslik o‘zbek adabiyoti, tili, xalqimiz tarixi, tarjimashunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik, pedagogika, etika, estetika kabi qator sohalarni ham qamrab oladi. 1933 yilda turk olimlari Nesip Azim va Abdulqodir Inan “Firdavs al-iqbol”dan parchalar e’lon qilganlar va turk ziyolilarini Munis va Ogahiyning tarixiy

asaridan qisman voqif qilganlar. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi “Adiblar xiyoboni”ga qilgan tashrifida belgilangan vazifalar ham ogahiyshunoslikni davr talablari asosida yangi bosqichga olib chiqishga asos bo‘ldi. Belgilangan vazifalarga ko‘ra Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Ogahiyshunoslar kenggashi” tashkil qilindi. Bugungi kunda sharqshunoslik universitetida Ogahiy ijodini chuqur o‘rganish, tatqiq qilish yo‘lida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu universitet talabalari adib ijodiga bag‘ishlab ilmiy izlanishlar olib boryabdi. Bobomiz Ogahiy ijodi yildan yilga o‘rganilayotgan bo‘lsada hali yoritilmagan mavzulari ko‘p. Shu sababdan ogahiyshunoslikning istiqboldagi rejalarini bosqichama-bosqich amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston mustaqillikga erishgach allomalarimizning ijodini keng o‘rganish takomillashdi. O‘sha davrdan boshlab Ogahiy ijodi bilan jahon xalqlarini chuqurroq tanishtirish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘lami nihoyatda kattaligi hamda murakkab jarayon ekanligi bois, ogahiyshunoslikning istiqboldagi rejalarini birma-bir amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Ogahiy asarlarini to‘la nashr qilish, ommaviy axborot vositalari orqali shoir ijodi targ‘ibotini olib borish, va Ogahiy asarlari lug‘atini tuzish kabi ishlarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komil Avaz "Muhammadrizo Ogahiy"-T.:2009

2. Z.Qurbonboyeva, O‘.Ne'matov, M.Muhammadova, D, Raxmonova. M. Toshtemirova Ogahiyning badiiy kashfiyotlari// Toshkent.:2021

3. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/521

4. https://yuz.uz/uz/news/ogahiyning-yangi-dastxati-guliston-qo‘lyozmasi

5. I. Karimov ,,Xalqimizning yo‘li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo‘lidir",-T.:O‘zbekiston, 1996.

6. Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q" T.,Sharq,1998,Б-4

WORDLY
KNOWLEDGE